



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Xasanova Ozodaxon Qurvonali Qizi**

*Farg`ona politexnika instituti assitenti, PhD*

## NEMIS TILI DARSLARIDA XATOLAR BILAN ISHLASH MUAMMOLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

### **Annotatsiya**

Maqolada nemis tili darslarida xatolar bilan ishlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, muammolar haqida mulohaza yuritilgan. Xatolarning qanday me'yorlarga asoslangan holda turlarga ajratilishi yoritib berilgan. Chet til o'qituvchilari va til o'rganuvchilarning xatolarga bo'lgan munosabati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** nemis tili darslari, xato, to'g'rilik me'yori, nutqiy vaziyatga moslik, tushunarlik, dars jarayoni bilan bog'liq me'yorlar, til o'rganuvchi, chet til, qoida.

### **KIRISH**

Ta'lim jarayonining intensivlashuvi bugungi jadal rivojlanayotgan jamiyatga hamohang tarzda o'zgarib bormoqda. Chet tilida ravon va bexato gapira olish ko'nikmasiga ega bo'lish har bir soha mutaxassisi uchun talab darajasiga ko'tarilgan. Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolar bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **ASOSIY QISM**

Har bir til o'rganuvchi chet til o'rganish jarayonida xatolarga yo'l qo'yadi. K.Kleppinning qayd etishicha, xatto ona tilida so'zlashuvchilar ham bunday xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Albatta, o'z ona tilisida so'zlayotgan insonlar ko'pincha leksik, grammatik xatolarga e'tibor berishmaydi. Chunki bunday xatolar tinglovchining eshitayotgan ma'lumotini tushunmasligiga sabab bo'lmaydi. Lekin bunday xatolarning to'g'rilanib bormasligi, keyinchalik ularning miqdori yanada ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Nemis tilini chet til sifatida o'rganayotgan til o'rganuvchilari ham xatoga yo'l qo'yimaslikka

qanchalik harakat qilishmasin, baribir ayrim xatolardan qocholmaydilar. Bunday xatolar tillar o`rtasidagi interferensiya sababli yanada ko`proq ko`zga tashlanadi.

Xatoga yo`l qo`yish me`yoriy hodisa bo`lib, ko`p hollarda muloqotga halaqit bermaydi. Lekin shunday xatolar ham borki, ular so`zlovchining e`tiborsizligi oqibatida yuzaga keladi.

Aslida xato deganda nima tushuniladi? Quyida chet til o`qituvchilarining xato tushunchasi to`g`risidagi ayrim fikrlarini keltirib o`tmoqchimiz. “Xato – belgilangan me`yorlarga amal qilmaslik”; “Grammatik qoidalarni to`g`ri qo`llay olmaslik”; “So`zlarni noto`g`ri talaffuz qilish”; “Lingvistik me`yordan og`ish”.

Ko`rib turganimizdek, xato haqidagi fikrlarning deyarli barchasida belgilangan ma`lum qoidaga amal qilmaslik natijasida kelib chiqqan noto`g`ri javob tushunilyapti.

Xatolar turli me`zonlarga qarab aniqlanishi mumkin. Masalan:

- to`g`rilik;
- tushunarlilik;
- nutq vaziyatiga moslik;
- ta`lim sharoiti bilan bo`g`liqlik.

Belgilangan til me`yorlariga asoslanmagan holda tildan foydalanish, to`g`rilik mezonining buzilishiga sabab bo`ladi. Masalan, nemis tilida fe`llarning hozirgi oddiy zamon birinchi shaxs birlikdagi shakli fe`l o`zagiga *-e* qo`shimchasini qo`shish yordamida yasalishi belgilangan. Agar til o`rganuvchi *-e* qo`shimchasining o`rniga boshqa qo`shimchani qo`llasa, bu xatoning to`g`rilik me`yoriga mos tushmasligini ifodalaydi.

Muloqot jarayonida yo`l qo`yilgan xato ko`pincha tushunarlilik me`yoringa buzilishiga olib keladi. Agar yo`l qo`yilgan xato tinglovchining muloqot mazmuni tushunishiga ta`sir etmasa, u xato hisoblanmaydi. Masalan “Men dugonamnikida qolaman” jumlasini “Ich bleibe bei meiner Freundin” shaklida nemis tili egalariga yetkazilsa, men dugonamni uyida to`liq qolaman mazmunida tushunilishi mumkin. Agar bir kecha qolish mazmunida gapirish kerak bo`lsa “Ich übernachte bei meiner Freundin” jumlasini qo`llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uchinchi me`yor pragmatik me`yor hisoblanadi. Til o`rganuvchi tili o`rganilayotgan mamlakatda nimani gapirish odobdan bo`lishi, nima odobga to`g`ri kelmasligi, mulozamatni qanday qilish kabi me`yorlarga ham ahamiyat berishi lozim. Bu me`yorlardan o`g`ish nutqiy vaziyatga bog`liq bo`lgan xatolarni keltirib chiqaradi.

Dars jarayoni bilan bog`liq me`yorlar asosan, darsliklarda berilgan qoidalar asosida shakllangan, dars olib boruvchi o`qituvchi tomonidan xato deb ko`rsatiladigan me`yorlarga hisoblanadi. Har bir o`qituvchi o`zi to`g`ri deb bilgan me`yorlari yordamida xatolarni tekshiradi.

Bundan tashqari xatolar qoida va me`yorlar bilan tanish bo`lgan holda, uni qo`llashda yo`l qo`yiladigan xatolarga va hali qoida yoki me`yor bilan tanish bo`lmagan holda yo`l qo`yiladigan xatolarga ham ajratiladi. Birinchi holat til o`rganuvchilarga biroz salbiy ta`sir etsa, ikkinchi holat til o`rganuvchilarning yangi biron narsani o`rganishlariga turtki bo`ladi.

Til o`rganishning dastlabki davri chet tilidagi so`zlarni ona tilisiga bog`lab tushunib olish yoki ona tilidagi grammatik qoidalar asosida gap tuzish holatlari ko`p uchrab turadi.


Masalan, nemis tilini o`rganishni endigina boshlagan til o`rganuvchilar o`zbek tiliga mos holda, birinchi o`rinda ega, keyin ikkichi darajali gap bo`laklari va gapning oxirida kesimni qo`llashga o`rganib qolganliklari uchun, so`z tartibidagi xatoga yo`l qo`yadilar. *Men maktabga boraman* mazmunidagi gap, *Ich in die Schule gehe* tarzida tarjima qilinadi va xatoga yo`l qoyiladi. Aslida til o`rganuvchi nemis tilida kesimning ikkinchi o`rinda kelishini qoida sifatida yod olgan bo`lsa-da, qayta-qayta xatoga yo`l qo`yishi mumkin. Dars jarayonida ushbu xato ko`p takrorlanadi, buni bartaraf etish uchun quyidagi tana harakatidan foydalanish yaxshi yordam beradi.



**Rasm № 1. Gapda kesimni o`rnini talabalarga eslatib turish uchun tana harakatidan foydalanish uchun namuna**

Bu harakat til o`rganuvchining nutqini buzmaganda, u yo`l qo`yishi mumkin bo`lgan xatoni oldini olishga xizmat qiladi. Bu holatdan online dars jarayonida ham foydalanish mumkin.

Nemis va o`zbek tillaridagi tovushlarining talaffuzidagi farq ham dastlabki o`rganish bosqichida til o`rganuvchilarning ko`p xato qilishiga olib keladi. Bu vaziyatda til o`rganuvchini to`xtatib, tovushning to`g`ri variatini aytish uning keying javobini aytishiga to`siq bo`lib qolishi mumkin. Shuning uchun chet til o`qituvchisi til o`rganuvchining javob berishi jarayonida yo`l qo`yayotgan talaffuzga oid xatolarni yozuv taxtasiga bevosita qayd etib ketishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan quyidagicha:



**Rasm № 1. Talaffuzdagi xatolarni to`g`rilash uchun yozuv taxtasidan foydalanish**

Ikki yoki uch dars jarayonida shunday qayd etish yordamida talaffuzga ko`maklashilganidan keyin, til o`rganuvchilarning xatolari sezilarli darajada kamayadi. Bundan tashqari til o`rganuvchining javobini to`xtatib tushuntirishga ehtiyoj qolmaydi.

Baʼzida oʻqituvchining oʻzi ham yozuv taxtasiga yozish jarayonida xatoga yoʻl qoʻygan boʻlishi mumkin. Oʻqituvchi xatosini koʻrganida buni ham til oʻrganuvchilarga yoʻnaltirgan holda bartaraf etishi mumkin. Masalan, til oʻrganuvchilar matni yozib boʻlishgan boʻlsa, matn ichida qaysi soʻz xato yozilganini topish topshirigʻini berish mumkin. Bu jarayon bir tomondan oʻqituvchi tomonidan yoʻl qoʻyilgan xatoli vaziyatdan chiqishga yordam bersa, ikkinchi tomondan til oʻrganuvchilarning ziyrakliklarini oshirishga xizmat qiladi.

## MULOHAZALAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi mulohazalarga keldik:

- chet til darslarida til oʻrganuvchilar tomonidan yoʻl qoʻyiladigan xatolar tabiiy boʻlib, ular oʻqituvchi tomonidan vazminlik bilan qabul qilinishi kerak;
- til oʻrganuvchilar eng koʻp yoʻl qoʻyadigan xatolar tizimlashtirilib, ularni bartaraf etish usullari ishlab chiqilishi lozim;
- yoʻl qoʻyiladigan xatolarga koʻp hollarda tillar oʻrtasidagi interferensiya hodisasi sabab boʻladi;
- chet tillarni oʻrgatish va oʻrganishda xatolarning toʻgʻrilik, tushunarlik, dars jarayoni bilan bogʻliq va nutqiy vaziyatga moslik kabi meʼyorlari muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, chet til oʻqituvchisi til oʻrganuvchilar tomonidan yoʻl qoʻyilayotgan xatolarni muntazam toʻgʻrilab borishi, ularni tizimlashtirish koʻnikmasiga ega boʻlishi lozim. Buning uchun boʻlajak nemis tili oʻqituvchilarini oʻqitishda xatolar bilan ishlash koʻnikmasini shakllantirib borish lozim. Oʻz vaqtida toʻgʻrilanmagan xatolar keyinchalik qotib qolgan xatolarga aylanadi va ularni bartaraf etish qiyinlashadi. Shu sababli yoʻl qoʻyilayotgan xatolarga ahamiyat bermasdan oʻtib ketmaslik har bir chet til oʻqituvchisining vazifalaridan biri hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Funk H. Koenig, M., Lehnert, U., Panes, P. Grammatik lehren und lernen. – Langenscheidt, 1991.
2. Kleppin K. Fehler und Fehlerkorrektur. – Langenscheidt, 1998. – T. 19.
3. Bohnensteffen M. Fehler-Korrektur: lehrer-und lernerbezogene Untersuchungen zur Fehlerdidaktik im Englischunterricht der Sekundarstufe II. – Peter Lang, 2010. – T. 1001.
4. Schoormann M., Schlak T. Sollte korrekatives Feedback „maßgeschneidert“ werden? Zur Berücksichtigung kontextueller und individueller Faktoren bei der mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit-/Fremdsprachenunterricht //Zeitschrift für interkulturellen Fremdsprachenunterricht. – 2012. – T. 17. – №. 2.
5. Schoormann M., Schlak T. Hilfreich oder ohne praktischen Nutzen?–Die Forschung zur mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit-und Fremdsprachenunterricht //Zeitschrift für Fremdsprachenforschung. – 2011. – T. 22. – №. 1. – C. 43-84.
6. Ehtle K. Fehlerkorrektur //Fehlertoleranzverfahren. – Springer, Berlin, Heidelberg, 1990. – C. 259-269.



7. Kötter M. Aus Fehlern lernen im Fremdsprachenunterricht //Focus on Evidence III: Fremdsprachendidaktik trifft Neurowissenschaften. – 2020. – С. 173.
8. Лежава Л. В. Комплекс упражнений при обучении чтению на немецком языке как втором иностранном //Вісник Харківського національного автомобільно-дорожнього університету. – 2007. – №. 37. – С. 33-38.
9. Жданова Г. А., Альмяшова Л. В. Языковые ошибки в переводах с иностранного языка на русский в письменных работах студентов вуза //Научный диалог. – 2018. – №. 5.
10. Бороздина Н. А. Методика преодоления интерференции при изучении предлогов немецкого языка как второго иностранного после английского : дис. – Тамбовский государственный университет им. ГР Державина, 2021.